QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.pedm.v08.i10.008

ATOYI DEVONIDAGI PARONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Nasillayeva Muxlisa Murodullo qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
muxlisanasillayeva022@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada özbek mumtoz adabiyotining yetuk şoiri Atoyi şe’riyatida qöllanilgan paronimlar tahlil qilingan. Paronimlarning leksik-semantik xususiyatlari oçib berilgan hamda uning şoir ijodida tutgan örni haqida fikr yiritilgan.

Kalit sözlar: Atoyi devoni, mumtoz adabiyot, paronim, kvaziomonim, leksik-semantik tahlil, badiiylik,

Аннотация: В данной статье анализируются паронимы, использованные в поэзии Атои, выдающегося поэта узбекской классической литературы. В исследовании раскрываются лексико-семантические особенности паронимов, а также подробно освещаются их роль и художественно-эстетическая функция в творчестве поэта.

Ключевые слова: Диван Атойи, классическая литература, пароним, квазиомоним, лексико-семантический анализ, художественность.

Abstract: This article analyzes the paronyms used in the poetry of Atai, an outstanding poet of Uzbek classical literature. The research reveals the lexical-semantic features of paronyms and discusses their role, significance, and artistic-aesthetic function in the poet's creative work.

Keywords: Devon of Atai, classical literature, paronym, quasi-homonym, lexical-semantic analysis, artistry.

Tilşunoslikda ikki yoki undan ortiq sözlarning özaro öxşaş, va ohangdoşlik hosil qilişi paronimiya hodisasi deyiladi. Bunday leksemalarda ohangdoşlik har ikkala leksemalarning bir-biriga yaqin talaffuz etilişidan hosil böladi. Masalan, *şoh* va *şox*, *hol* va *xol* kabi. Uşbu leksemalarda biri ikkinçisidan bir fonemaning farq qilişi bilan hosil qilingan. Ammo tilşunoslikda şunday birliklar ham borki, ular ikki yoki undan ortiq leksemalarning özaro öxşaş, ohangdoş bölişi bilan izohlanadi. Ular-kvaziomonimlardir. Xöş, paronim va kvaziomonimlar bir biridan qaysi jihatiga kör farq qiladi? Qanday leksemalar paronim-u, qaysilari kvaziomonimlar? Tilşunoslarimizdan H.Jamolxonov ham aynan ana şu ikki til birligining farqini aytib ötadi. Uning ta’kidlaşiça, kvaziomonimlar özaro bir biriga qarama qarşi bölgan ikki tovuşlar zidligi asosida hosil qilingan öxşaşlik bölib, paronimlar talaffuzi bir biriga yaqin bölgan leksemalardir. “Leksemalarning bir tovuş (fonema) bilan farqlanişi doimo paronimiyaga

olib kelavermaydi. Aks holda tildagi kvaziomonimlarning (minimal juftlikdagi sözlarning) barçasini paronimlar deb baholaşga töğri keladi”. [1,246-bet.] Demak, paronim ulardan talaffuzdagi yaqinlik bilan farqlanar ekan. Tilşunoslikda paronimlarning ana şunday jihatlarini örganiş asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Şunday ilmiy tadqiqotlar sirasiga V.Nafasovaning “Özbek tili paronimlarining lisoniy tahlili” nomli monografiyasini kiritiş mumkin. Uşbu monografiyada paronimlarning lisoniy tabiati, öziga xos jihatlari töğrisida fikr yuritiladi. Bundan taşqari bir qança maqolalarda ham paronimlarga urğu berilgan. Mana şu jihatdan uşbu maqolada ham mumtoz badiiy matnlarga murojaat etildi. Jumladan, Mavlono Atoyi şe’riyatida ham paronimlarning qöllanilişi e’tiborga molik sanaladi. Atoyi devonida keltirilgan ğazallarda paronimlar köp uçramaydi. Ammo şunga qaramasdan devonda sanoqli örinlarda kelgan paronimlarning ma’no qirralari bizni öziga jalb etmay qolmaydi. Bunga quyidagi misralarni misol qilib keltiriş mumkin:

Har zamon çiqma xiromon yuz uza zulfung solib,
Tuşmasun islom içinda rasmi zunnoru salib. [7.39]

Baytda şoir ***salib*** hamda ***solib*** sözlaridan paronim sifatida foydalanadi. *Salib* sözi arabchada “but”, “xoç” ma’nolarini anglatadi. [5,503-506-b.] Xoç xristianlik ramzi hisoblanib, 1096-1270-yillarda Ğarbiy Yevropa zodagonlari va katolik çerkovi tomonidan Suriya, Falastin, Şimoliy Afrikaga qilingan bosqinçilik yurishlari ham salib yurishlari deb nom olgan. Solib-solmoq, ya’ni harakat mazmunidagi leksema bölib, Atoyi ularni talaffuz jihatidan paronim şaklida keltiradi. Solib – majoziy ma’noda zulfini yuziga tuşurib yuriş ma’nosini anglatgan bölsa, salib–diniy konnotatsiyaga ega va u ğayridinlik belgisidir.

Qomating bolosina borduq tamoşo qilgali,
Bir balo körduk taololloh, ki bolo körmaduk. [7.127]

Baytda ***bolo va balo*** so‘zlari paronim sifatida qöllanilgan bölib, bolo leksemasi izohli luğatda (f.–tepa, baland; balandlik) baland, yuqori, balandparvoz [3,527-b.] deb keltirilgan. Balo (a.- sinov; ofat, musibat,baxtsizlik) biror voqea-hodisa, harakat tufayli yuzaga kelgan ofat, falokat; tashvish [3, 259-b.] ma’nosini anglatadi. Bu ikki leksema talaffuz jihatdan töliq ohangdoş bölib, ular örtasida zidlik munosabati yuzaga çiqqan. Şoir baytda taşbeh va söz öyini vositasidan mahorat bilan foydalangan. Yorning gözalligi balo bilan qiyoslangan hamda oşiq yor *gözalligini tomoşa qilay deb, göyo baloga uçraydi.*

Öltur, ölay qošingda yuzunga boqa-boqa,
Bölsun hayoti Xizr ila umri baqo saning. [7.135]

Boqmoq leksemasi nazar taşlamoq, nazar solmoq, qaramoq ma’nolarini anglatadi. Baytda bu sözning takror holatda (*boqa-boqa)* keltirilişi ma’noni yanada kuçaytirgan**.** Unga paronim sifatida tasavvufiy istiloh-**baqo** olingan. Baqo arabcha özlaşma bölib, *abadiylik, mangulik; davomlilik* ma’nosini bildiradi. Ikki leksema fonetik jihatdan bir-biriga yaqin bölsa-da, biri harakat bildiruvçi fe’l, biri esa ot bo‘lgan so‘zlardir. Baytda oşiq sevgilisi jamolini körgaç, unga termulib jon berişni istaydi hamda şu jon olguvçi seviklining umri Xizr alayhissalom umri bilan teng, abadiy umr bölişini tilaydi.

Qilça jonimğa öšal zulfi qaro qasd ayladi,
Ul alo közlar daği könglum olo qasd ayladi. [7.277]

Uşbu baytda Atoyi ***alo*** va ***olo*** so‘zlaridan foydalanadi. Alo leksemasi *oliylik, yuksaklik* ma’nosini bildiradi. [6, 67-b.] Olo – fe’l so‘z turkumidagi so‘z va oliş ma’nosida qo‘llangan. Ya’ni oşiqning qildek joniga öşa yorning qora zulfi qasd ayladi, u ola közlar yana oşiq könglini olişga qasd ayladi. Ola va olo sözlarida talaffuz jihatdan yaqinlik mavjud bo‘lib, semantik farq esa – biri sodda rang, ikkinçisi harakat bildiruvçi leksemadir. Bu örinda şoir könglini qora soçlar va jozibali közlar zabt etganini ta’sirli ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Atoyi öz ğazallarida paronimlardan foydalaniş orqali undagi badiiy ta’sirçanlik hamda ohangdorlikni oşiradi. Devonda paronimik birliklar ham şoir yaşagan davrning til imkoniyatlarini özida namoyon etadi. Şuningdek, uşbu til birliklari eski özbek adabiy tilining leksik qatlami va ularning semantik imkoniyatlari sezilarli darajada keng ekanligini yaqqol körsatadi. Şu jihatdan Atoyi devonida uçraydigan paronimlarni tahlil qiliş mumtoz matnlarimizning til xususiyatlarini oçib berişga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov. H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 2013. -403 b.
2. Nafasova V. O‘zbek tili paronimlarining lisoniy tahlili. Monografiya. -Qarshi, 2024. – 133 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi naşriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III tom. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi naşriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 844 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. IV tom. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi naşriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 824 b.
6. Бердақ Юсуф. Навоий тили луғати. I том. – T: Sharq, 1983. – 496 б.
7. Девони Шайхзода Атойи. Т.:Фан, 2008. -320 Б.